

Шароф Рашидов туман ХТБга қарашли 21-сонли умумий ўрта таълими мактабини
жорий таъмирлаш ишлари бўйича

ЙИҒИЛИШ БАЁННОМАСИ № 12

2022 йил 31 август

Ш.Рашидов т.

Биз қуйида имзо чекиб тасдиқловчилар комиссия ранси Шароф Рашидов туман халқ таълим бўлимининг раҳбари Д.Носиров, комиссия котиби бўлим бош ҳисобчиси С.Пардаев, аъзолари бўлим ходимлари Ш.Назирова, Ш.Тағатов, О.Раҳмонқулов, Д.Яхшиев Шароф Рашидов туман ХТБга қарашли 21-сонли мактабни жорий таъмирлаш ишлари бўйича 29 август 2022 йил 22110012141326-сонли ЛОТ билан 391 000 000 (Уч юз тўқсон бир миллион) сўмлик 21-сонли мактабни жорий таъмирлаш ишларини қилиш бўйича тендер танловига қўйилган.

2022 йил 29 июн кун 22110012141326-сонли ЛОТ билан танловда иштирок этган корхоналар ичида “ООО ORZU CAPITAL NUR” МЧЖ 391 000 000 (Уч юз тўқсон бир миллион) сўмлик 21-сонли мактабни жорий таъмирлаш ишларини қилиш ишлари бўйича танлов ғолиби бўлган.

Бажариладиган жорий таъмирлаш ишларига 2022 йил 29 август кун танловда ғолиб бўлган “ООО ORZU CAPITAL NUR” МЧЖ га дастурда шаклланган 141326-сонли баённомасига кўра ўРҚ 684-нинг 7-8 бандига мувофиқ баённома тузилган 2 (икки) иш кун муҳокамада турди ва ҳеч қандай эътирозлар келиб тушмаганлиги сабабли ушбу “ООО ORZU CAPITAL NUR” МЧЖ билан 2022 йил 31 августдаги 203-3-46-ХТ/2022-сонли йетказиб бериш шартномаси тузишга келишилди.

Комиссия ранси:

комиссия котиби:

комиссия аъзолари:



Д.Носиров

С.Пардаев

Ш.Назирова

Ш.Тағатов

О.Раҳмонқулов

Д.Яхшиев

31.08.2022 yil.

203-3-46-XT/2022-son

PUDRAT SHARTNOMASI

Sharof Rashidov tuman Xalq ta'limi bo'limi (keyingi o'rinlarda Buyurtmachi" deb yuritiladi) nomidan harakat qiluvchi Durbek Nosirov bir tomondan va OOO ORZU KAPITAL NUR (keyingi o'rinlarda "Pudratchi" deb yuritiladi) nomidan harakat qiluvchi Nurali Muxiddinov ikkinchi tomondan, quyidagilar to'g'risida mazkur shartnomani tuzdilar:

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Pudratchi o'z zimmasiga buyurtmachining topshirig'iga ko'ra mazkur shartnomaning 1.2 bandida ko'rsatilgan ishlarni bajarish va uning natijasini buyurtmachiga topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa ishlarning natijasini qabul qilib olish va buning uchun xaq to'lash majburiyatini oladi.

1.2. Pudratchi keyingi o'rinlarda "Ishlar" deb ataladigan quyidagi ishlarni bajarish majburiyatini oladi.

Sharof Rashidov tuman Xalq ta'limi bo'limiga qarashli 21-sonli maktabni joriy tamirlash .

2. SHARTNOMA BAHOSI

2.1. Shartnoma umumiy bahosi 391000000 (uch yuz to'qqson bir million) so'mni tashkil etadi.

2.2. Buyurtmachi tomonidan pudratchiga shartnoma baxosini to'lash bajaruvchining mazkur shartnomada ko'rsatilgan xisob-kitob xisobvarag'iga pul mablag'larini ko'chirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

3. MAJBURIYATLARNING BAJARILISHI MUDDATI.

3.1. Buyurtmachi pudratchiga shartnoma umumiy qiymatining 30 %i miqdorida bunak tulovlarini amalga oshiradi. Ishlarni qabul qilishda aniqlangan nuqson va kamchiliklarni bartaraf etish ishlari to'liq hajmda bajarilgandan so'ng buyurtmachiga bajargan ishlar uchun oxirgi, uzil-kesil, hisob-kitobni amalga oshiradi.

Mazkur shartnoma G'aznachilik organlarida ro'yxatdan o'tgandan so'ng kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabrgacha amal qiladi.

3.2 Shartnomaning amal qilish muddati:

Boshlanishi – 2022 yil avgust

Tugashi – 2022 yil senryabr

4. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI.

4.1. Pudratchining majburiyatlari:

4.1.1. Ishlarni lozim bo'lgan sifatda bajarish.

4.1.2. Ishlarni mazkur shartnomaning 1.4-bandida ko'rsatilgan muddatda bajarish.

4.1.3. Ob'yektga loyixaga binoan zarur bulgan materiallarni, konstruksiyalarni, butlovchi ashyolarni yetkazib berish va ularni qabul kilish, tushirish, taxlash hamda saqlashni amalga oshirishi;

4.1.4. Ushbu shartnoma buyicha ishlarni bajarish uchun jalb qilinadigan maxsus tashkilotlar bilan subpudrat shartnomalarini tuzgani tug'risida buyurtmachiga axborot berishi va u tomondan ishlarning bajarilishi yuzasidan nazoratni ta'minlashi;

4.1.5. Ishlarning natijasini buyurtmachiga topshirish.

- 4.1.6. Agar pudratchi ishlarni bajarish jarayonida shartnoma shartlaridan ishlarning sifatini yomonlashtirishga olib keladigan chetga chiqishga yo'l qo'ygan bo'lsa, buyurtmachining talabiga binoan aniqlangan barcha kamchiliklarni 10 kun ichida tekinga bartaraf etish.
- 4.1.7. Texnika xavfsizligi, yong'in xavfsizligi va ob'yektni qo'riqlash bo'yicha zaruriy chora-tadbirlarning bajarilishini ta'minlashi;
- 4.1.8. Ishlarni shaxsan bajarish.
- 4.2. Pudratchi quyidagi huquqlarga ega:
- 4.2.1. Buyurtmachi tomonidan mazkur shartnomaning 3-bandida ko'rsatilgan hak to'lash majburiyati bajarilmaganda, pudratchi ishlarning natijasini ushlab turish huquqiga ega.
- 4.3. Buyurtmachining majburiyatlari:
- 4.3.1. Pudratchidan ishlar tugallanganligi haqida xabarnoma olgandan keyin 5 kun ichida yoki mazkur shartnomaning 1.4-bandida ko'rsatilgan muddat tugaganda, ishlarning natijasini ko'rib chiqish va qabul qilish, ishlarning natijasini yomonlashtiradigan shartnomadan chetga chiqishlar yoki ishlardagi boshqa kamchiliklar aniqlanganda, bular haqida pudratchiga darhol xabar berish.
- 4.3.2. Ishlarning natijalarini qabul qilgan paytdan mazkur shartnomaning 3-bandida ko'rsatilgan hisoblashlar tartibi bo'yicha ishlar uchun haq to'lash.
- 4.4. Buyurtmachi quyidagi huquqlarga ega:
- 4.4.1. Har qanday vaqtda pudratchining faoliyatiga aralashmagan holda u tomonidan bajariladigan ishlarning borish jarayoni va sifatini tekshirish.
- 4.4.2. Buyurtmachi ish natijasi o'ziga topshirilgunga qadar istagan vaqtda shartnomadan voz kechib, belgilangan bahoning buyurtmachi shartnomani bajarishdan voz kechganligi to'g'risidagi xabarnoma olingunga qadar bajarilgan ishlar qismiga mutonosib qismini pudratchiga to'lash. Bunda buyurtmachi pudratchiga shartnomaning bekor qilinishi tufayli yetkazilgan zararni bajarilgan ishning bahosi bilan hamma ish uchun belgilangan baho o'rtasidagi farq doirasida to'lashi ham shart.

5. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

- 5.1. Taraflar shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddatlarini buzgan taqdirda, aybdor taraf ikkinchi tarafga har bir kechiktirilgan kun uchun shartnoma bahosining 0.4% foizi miqdorida neustoyka to'laydi.
- 5.2. Mazkur shartnoma bo'yicha boshqa majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun aybdor taraf ikkinchi tarafga zararni va boy berilgan foydani qoplaydi.

6. FORS-MAJOR

- 6.1. Hech bir taraf ikkinchi taraf oldida o'ziga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra va yengib bo'lmay kuch mavjud bo'lgan taqdirda ushbu shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlari bo'yicha javobgar emas. (Urush e'lon qilinishi yoki boshlanishi, fuqarolar tartibsizligi, epidemiya, embargo, yer qimirlashi, suv toshqini, yong'in va boshqa tabiiy ofatlar shular jumlasidandir.
- 6.2. Bartaraf kilib bulmaydigan kuchlarning mavjudligi yoki amalda davom etayotganligini O'zbekiston Respublikasi Hukumatining shunga oid qarorlari yoki boshqa vakolatli organlar tomonidan berilgan guvoxonmalari uning yetarli darajadagi tasdig'i bo'lib hisoblanadi.

7. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

- 7.1 Mazkur shartnomani bajarishda yuzaga keladigan nizolar va kelishmovchiliklar taraflar o'rtasida imkon qadar muzokaralar yo'li bilan hal etiladi.

8. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLASHUV.

- 8.1 Ushbu shartnomaning har bir tomoni o'ziga nisbatan qo'llaniladigan barcha, shu

jumladan O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlaridagi Korrupsiyaga qarshi tegishli shartlar va talablarni tushunishi haqida bir-birini ishoniradi va ularga amal qilishini kafolatlaydi.

8.2Iste'molchi ushbu shartnoma amalda bo'lgan butun davr mobaynida u (shuningdek uning mansabdor shaxslari, direktori, xodimlari, agentlari va boshqa vakillari) Ta'minotchi korxonaning manfaatlarida uning agenti yoki vakili sifatida harakat qilib, Ta'minotchi korxonaning hamda O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlarining Korrupsiyaga qarshi tegishli shartlari va talablariga qat'iy rioya etish majburiyatini oladi.

9. Taraflarning rekvizitlari va imzolari:

Pudratchi:OOO Orzu kapital nur
Manzil:Ziyolor QFY sangzor k 110
Tel:+998933090010
X/R:20208000705084551001
Bank nomi:"Xamkorbank"
STIR:306469566 MFO:01117


Buyurtmachi:Sh.Rashidov XTM
Manzil:Uchtepa daxasi mustaqillik k
Tel:+998723421055
Shxr:100022860082127092100075085
Banknomi:Mikrokreditbank
STIR:201369776 MFO:00135



Raxbar: N.Muxiddinov



Raxbar: M.Boysirov

	Hujjat <u>elektron raqamli imzo</u> orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiyiligini tekshirish uchun QR Code ni skanerlang.	
	Imzolovchi F.I.SH.	undefined
	Imzolangan sana	undefined
	Hujjat kodi	undefined
	Hulosa kodi	undefined

YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

1. Loyi haning turi: Shartnoma loyihasi
2. Loyi haning nomi: pudra shartnomasi
Sharof Rashidov tuman Xalq ta'limi bo'limi (keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladi) nomidan harakat qiluvchi **Durbek Nosirov** bir tomondan va ORZU KAPITAL NUR MCHJ (keyingi o'rinlarda "Pudratchi" deb yuritiladi) nomidan harakat qiluvchi Nurali Muxiddinov, o'rtasida Sharof Rashidov tuman Xalq ta'limi bo'limiga qarashli 21-sonli maktabni joriy tamirlash maqsadida tuzilgan.

Shartnoma bahosi 391000000 (uch yuz to'qqson bir million) so'mni tashqil qiladi

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:
Sharof Rashidov tuman Xalq ta'limi bo'limi tomondan 30.08.2022 yilda yuridik xizmat ko'rsatish markaziga taqdim etilgan yuqarida qayd etilganlarga asosan,

XULOSA QILDIM:

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni tuzish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh maslahatchisi



K.Saipov

30.08.2022 yil